



PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANI  
LINGVOPOETIKSI

*Raxmanova Muborak Abdusamatovna*

*Nizomiy nomidagi O'zMPU*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

*1 - bosqich magistranti*

*Annotatsiya:* Mazkur maqola P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy romanining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda qo'llangan badiiy til vositalari, tarixiy leksika tasvir unsurlari hamda muallif uslubining o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida romandagi obrazlik, metafora ramz va tarixiy-estetik birliklarning badiiy matn shakllanishidagi o'rni aniqlanadi.

*Kalit so'zlar:* Lingvopoetika, tarixiy roman, poetik vositalar, P.Qodirov “Yulduzli tunlar” .

**Kirish**

O'zbek adabiyotida tarixiy roman janri alohida o'rin tutadi. Bu janr nafaqat tarixiy voqealarni aks ettirish, balki davr ruhini til orqali jonlantirish imkonini beradi. P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani A.Navoiy siymosi temuriylar davr madaniy muhitini tasvirlashda yuksak badiiylikka erishgan asarlardan biridir. Asarning badiiy qudrati, avvalo, uning lingvopoetik imkoniyatlaridan samarali fotalanilganida namoyon bo'ladi. Lingvopoetik jihatdan tadqiq etish asarning badiiy estetik quvvatini, muallif mahoratini va til birliklarining badiiy niyatga xizmat qilish usullarini ochib beradi.

Lingvopoetik tadqiqotning nazariy asoslari

Lingvopoetika — tilshunoslik va adabiyotshunoslik tutashgan nuqtada vujudga kelgan soha bo'lib, badiiy matndagi til birliklarining estetik vazifasini o'rganadi.

Badiiy matn – makrotizim sifatida: "Yulduzli tunlar" asari nafaqat informatsiya tashuvchi, balki estetik ta'sir ko'rsatuvchi murakkab lisoniy tizim



sifatida qaraladi. Lingvopoetik tahlil obyekti: Romandagi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklarning badiiy obraz yaratishdagi ishtiroki. Masalan, Bobur Mirzo obrazining nutqiy xarakteristikasi. Estetik funksiya: Oddiy soʻzning badiiy matn ichida "poetik soʻz"ga aylanishi va uning badiiy kontekstdagi qoʻshimcha maʼno qatlamlari (konnotatsiya).

Metodologik asoslar va usullar

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Lingvopoetik tahlil metodi: Til birliklarining badiiy maqsadga qanchalik xizmat qilganini aniqlash.

Kontekstual tahlil: Soʻzning lugʻaviy maʼnosidan tashqari, aynan "Yulduzli tunlar" matni ichida qozongan yangi maʼno va jilosini oʻrganish.

Siyosiy va tarixiy-etimologik tahlil: Roman tarixiy mavzuda boʻlgani uchun undagi arxaizmlar, historizmlar va eskirgan harbiy-maʼmuriy terminlarning davr ruhini berishdagi oʻrni.

Solishtirma metod: P.Qodirov tili bilan tarixiy manbalar (masalan, "Boburnoma") tilini qiyoslash orqali muallifning individual uslubini aniqlash.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" -Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashryot.
2. B. Yoʻldoshov Badiiy matn lingvopoetikasi- Toshkent
3. A.Rahimov Oʻzbek tarixiy romanlarida til va uslub masalalari